

**Toshkent shahar «SHAROIT PLYUS» nogironlar jamoat birlashmasi
nodavlat notijorat tashkiloti va Toshkent davlat yuridik universiteti o‘rtasida
o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida**

MEMORANDUM

Toshkent shahar «SHAROIT PLYUS» nogironlar jamoat birlashmasi nodavlat notijorat tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – Birlashma) nomidan Ustav asosidan ish yurituvchi Raximova Muxabbat Axrarovna bir tomondan, Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda – TDYU) nomidan Ustav asosidan ish yurituvchi rektor v.v.b. Rustambekov Islambek Rustambekovich ikkinchi tomondan, (birgalikda keyingi o‘rinlarda – Tomonlar) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-apreldagi “Toshkent davlat yuridik universitetida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2932-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5987-son Farmoniga muvofiq ushbu Memorandumni quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1-modda. Memorandum predmeti

1.1. Ushbu Memorandumning predmeti Tomonlar o‘rtasida nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish sohasida uzoq muddatli, samarali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, ekspertlarni, TDYU dan iqtidorli talabalarni va malakali mutaxassislarni jalb qilgan holda birlashmaning “Huquq Plus – maxsus huquqiy axborot veb-portali orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish” loyihasi hamda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlashga oid boshqa loyihalarni amalga oshirish. Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash. Mavzuga aloqador tadbirlarni tashkil etish hamda soha boyicha hamkorlikda ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini o‘tkazishga qaratilgan sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va tomonlar faoliyatiga har taraflama ko‘mak berishdan iborat.

1.2. Tomonlar umumiy amaliyotdan kelib chiqqan holda, tenglik, ijobiy maqsad, hurmat va ishonch asosida hamkorlikni amalga oshiradilar.

1.3. Ushbu Memorandumni amalga oshirish jarayonida Tomonlar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

2-modda. Toshkent shahar “SHAROIT PLYUS” nogironlar jamoat birlashmasining o‘zaro hamkorlik borasidagi vazifalari.

2.1. Birlashmaning nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan loyihalarida hususan hozirgi kunda birlashma tomonidan amalga oshirilayotgan “Huquq Plus – maxsus huquqiy axborot veb-portali orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish” nomli loyihasi doirasida TDYU bilan yaqindan hamkorlik qilish;

2.2. TDYU ning nogironlik masalalariga qiziquvchi talabalarini Birlashmada amaliyot o‘tishini ta‘minlash;

2.3. TDYU ning professor o‘qituvchilari, talabalari, va mazkur soha bo‘yicha faoliyat olib boruvchi xodimlarga, nogironlik tushunchasi, nogironlikning ijtimoiy modeli, nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan muloqotga kirishish kabi mavzularda treninglar tashkil etish;

2.4. Birlashmaning “Huquq Plus – maxsus huquqiy axborot veb-portali orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish” loyihasiga va nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan turli loyihalariga TDYU ning iqtidorli talabalarini va boshqa xodimlarni ishtirokini ta‘minlash;

2.5. Birlashma zarur hollarda TDYU ning nogironligi bo‘lgan talabalarini o‘qitish jarayonlarida TDYU ga ta‘lim dasturlarini nogironligi bo‘lgan shaxslarga moslashtirish shuningdek, ko‘rish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun va eshitish bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslar ta‘lim jarayonida foydalanishlari uchun mo‘ljallangan darsliklar va boshqa qo‘llanmalarni ishlab chiqishga ko‘maklashadi;

2.6. TDYU ning nogironligi bo‘lgan talabalarni o‘qitishda nogironlik holatidan kelib chiqib, ularni ehtiyojlarini hisobga olgan holda dars jarayonlarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashadi;

2.7. Hamkorlik jarayoni va uning natijalarini TDYU bilan monitoring qiladi va baholaydi.

3-modda. Toshkent davlat yuridik universitetining o‘zaro hamkorlik borasidagi vazifalari

3.1. Birlashmaning “Huquq Plus – maxsus huquqiy axborot veb-portali orqali nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish” loyihasi va nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan loyihalarini amalga oshirishiga ko‘maklashish;

3.2. Iqtidorli talabalarni amaliyot o‘tishlari uchun Birlashma faoliyatiga jalb etish;

3.3. TDYU ning professor o'qituvchilarini, talabalarini va boshqa xodimlarni nogironlik masalalari bo'yicha bilimlarini oshirishga qaratilgan treninglarga jalb etish;

3.4. Soha bo'yicha qo'shma ilmiy, o'quv va axborot-tahliliy nashrlarni (monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar, ma'ruzalar, maqolalar va boshqalar) tayyorlash.

3.5. Birlashma tomonidan "Huquq Plus – maxsus huquqiy axborot veb-portali orqali nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish" loyihasi va nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga oid loyihalarini amalga oshirishida loyihaga TDYU ning talabalari safidan faol volontyorlarni jalb etish;

3.6. TDYU qoshida tashkil etilgan yuridik klinika orqali Birlashmaning loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

3.7. Birlashma bilan nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlashga oid mavzularda ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish;

3.8. Hamkorlik jarayoni va uning natijalarini Birlashma bilan monitoring qiladi va baholaydi.

4-modda. Hamkorlikni tashkil etish

4.1. Tomonlar o'rtasida ushbu Memorandunga qo'shimcha ravishda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi imzolanishi mumkin va ushbu yo'l xaritasi Tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng Memorandumning ajralmas qismi hisoblanadi.

4.2. Qo'shimcha moliyaviy mablag'lar talab etiladigan hamkorlik yo'nalishlari bo'yicha zarurartga ko'ra alohida shartnomalar tuziladi.

5-modda. Qo'shimcha shartlar

5.1. Ushbu Memorandum imzolanganach Tomonlarga hech qanday huquqiy va moliyaviy majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi, bu kabi majburiyatlar yuzaga kelishi uchun Tomonlar o'rtasida alohida fuqarolik shartnomalar tuzilishi talab etiladi.

5.2. Ushbu Memorandum dastlabki kelishuv bo'lib, sheriklik shartnomasi hisoblanmaydi va uning qoidalarini bajarmaslik Tomonlar uchun javobgarlikni keltirib chiqarmaydi (Tomonlardan hech biri boshqa tomonga Memorandumning amalga oshirilishi (muvaffaqiyatsizligi), amal qilishining tugashi yoki tugatilishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni qoplashga majbur bo'lmaydi).

5.3. Ushbu Memorandum doirasida hech bir tomon boshqa tomon yoki Tomonlarning majburiyatlari yoki qarzdorliklari bo'yicha mas'ul yoki qarzdor hisoblanmaydi va hech bir tomon tegishli alohida shartnomalar tuzmasdan turib

boshqa tomon yoki Tomonlarning vakili sifatida ish olib borishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.4. Har bir tomon ushbu Memorandum shartlarini amalga oshirishdan kelib chiqadigan harajatlarni (agar tegishli kelishuvlarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa) o'z zimmasiga oladi.

5.5. Har bir tomon ushbu Memorandum doirasidagi hamkorlikka oid boshqa tomon bilan oldindan kelishilmagan holda ochiq bayonotlar bermaydi.

6-modda. Qonunchilikka rioya qilish

6.1. Tomonlar ushbu Memorandumni, shuningdek, alohida kelishuvlarni O'zbekiston Respublikasining barcha amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

6.2. Tomonlar boshqa yuridik shaxslar bilan predmeti, hajmi va shartlari bo'yicha o'xshash shartnomalar tuzishga haqli.

7-modda. Maxfiylik

7.1. Tomonlar ushbu Memorandum va boshqa memorandumlar doirasida tuzilgan alohida shartnomalar bo'yicha boshqa tomondan olingan har qanday ma'lumotlarni sir saqlashga majburdilar.

7.2. Tomonlar ushbu Memorandum shartlari va maxfiy ma'lumotlar sifatida yoki o'z mohiyatiga ko'ra maxfiy deb hisoblanishi kerak bo'lgan ma'lumotlar sifatida uzatiladigan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashga majburdirlar.

8-modda. Memorandumning amal qilish muddati va uning tugatilishi

8.1. Ushbu Memorandum nomuayyan muddatga tuziladi va Tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

8.2. Tomonlarning har biri boshqa tomonni tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin yozma ravishda xabardor qilgan holda ushbu Memorandumni bir tomonlama va muddatidan oldin tugatishga haqli.

9-modda. Yakuniy qoidalar

9.1. Tomonlar ikki tomonlama muzokaralar yo'li bilan ular o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun barcha zarur choralarni ko'radilar.

9.2. Ushbu Memorandumga kiritilgan har qanday o'zgartirishlar, agar u yozma ravishda tuzilgan va Tomonlarning har biri tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.


9.3. Tomonlarning har biri boshqa tomonni o'z nomi, manzili, telefon va faks raqamlari va internet manzili o'zgarganligi to'g'risida bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay xabardor qilish majburiyatini oladi.

9.4. Ushbu Memorandum ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega va har bir tomon uchun bir nusxadan taqdim etiladi.

10-modda. Tomonlarning imzolari:

Toshkent shahar «SHAROIT
PLYUS» nogironlar jamoat
birlashmasi raisi

Toshkent davlat yuridik universiteti
v.v.b. rektori



M. Raximova



I. Rustambekov

2024-yil "17" yanvar

yanvar

2024-yil "17" yanvar

yanvar